



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH
ISLOHOTLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH: 2030 YILGACHA
BELGILANGAN CHORA-TADBIRLAR TAHLILI

Muallif : Karimova Sayyora Abdurashid qizi

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati, ularning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorligini oshirish mexanizmlari tahlil qilinadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari, xalqaro tajribalar, milliy strategik dasturlar hamda davlat qarorlari asosida olib borilayotgan chora-tadbirlar o'rganiladi. Shu bilan birga, sug'urta kompaniyalari va moliya institutlarining yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni, mavjud muammolar va istiqboldagi yechimlar ko'rsatib o'tiladi. Tadqiqot yakunida barqaror rivojlanishga erishish uchun zarur bo'lgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.*

Kalit so'zlar: *Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik islohotlar, moliyaviy institutlar, sug'urta kompaniyalari, iqlim o'zgarishi, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, resurslardan oqilona foydalanish, 2030 strategiyasi.*

Annotation. *This scientific article analyzes the essence of the reforms being implemented in the Republic of Uzbekistan aimed at transitioning to a green economy by 2030, as well as the mechanisms for enhancing their economic, environmental, and social effectiveness. The theoretical foundations of the green economy, international experiences, national strategic programs, and government decisions that guide these measures are examined. Furthermore, the role of insurance companies and financial institutions in the development of the green economy, existing challenges, and prospective solutions are highlighted. The study concludes with the development of scientific and practical recommendations necessary to achieve sustainable development.*

Keywords: *Green economy, sustainable development, environmental reforms, financial institutions, insurance companies, climate change, energy efficiency, renewable energy, rational use of resources, 2030 strategy.*

XXI asr boshlaridan boshlab jahon hamjamiyatida ekologik muammolar keskin tus oldi. Global isish, tabiiy resurslarning kamayishi, havoning ifloslanishi va suv tanqisligi insoniyatni yangi iqtisodiy model – yashil iqtisodiyotga o'tishga majbur qilmoqda. BMT, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro institutlar ham mamlakatlardan barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirishni talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global jarayonlardan chetda qolmagan holda, 2019-yildan boshlab "Yashil iqtisodiyot" konsepsiyasini qabul qildi va 2030 yilgacha bo'lgan davr uchun milliy strategiyasini ishlab chiqdi. Prezidentimizning 2023-yil 1-avgustdagi "2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tishiga





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mazkur sohada yangi bosqichni boshlab berdi.

Mazkur maqolaning maqsadi – 2030 yilgacha yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlarni ilmiy asosda tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash va xalqaro tajribalar bilan solishtirishdir.

Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishni ta'minlash bilan birga ekologik xavfsizlikni kafolatlaydigan modeldir. U resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni o'z ichiga oladi.

Jahon olimlari yashil iqtisodiyotni “uch poydevor” modeli asosida tushuntiradilar:

1. Iqtisodiy barqarorlik;
2. Ekologik muvozanat;
3. Ijtimoiy farovonlik.

Mazkur uchlikni ta'minlash mamlakatlarda uzoq muddatli barqaror rivojlanishga erishishning asosiy kafolatidir.

Yashil iqtisodiyotning global ahamiyati quydagilarda o'z aksini topadi. Bugungi kunda Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi davlatlar yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha yetakchilik qilmoqda. Ularning tajribasi shuni ko'rsatadiki, ekologik islohotlar dastlabki bosqichda katta sarmoya talab qilsa-da, uzoq muddatda yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning huquqiy bazasi mavjud bo'lib, uning asosi sifatida quyidagi asosiy hujjatlarni misol qilib keltirishim mumkin :

-2019-yil 4-oktabrdagi Prezident farmoni bilan tasdiqlangan “Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi – 2030”;

-2023-yil 1-avgustdagi PQ-266-son qaror – islohotlar samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar;

-Energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari.

Mazkur hujjatlar mamlakat iqtisodiyotini transformatsiya qilishda huquqiy asos yaratib berdi. Ayniqsa, 2023-yildagi qaror yashil iqtisodiyotga oid davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirishni nazarda tutadi.

2030 yilgacha qabul qilingan chora-tadbirlar ro'yhatida energiya sektorida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish belgilangan :

- Quyosh va shamol elektr stansiyalarini barpo etish;
- Energiya samarador uy-joylar qurilishi;
- Qayta tiklanuvchi energiya ulushini 30% ga yetkazish.

Qishloq xo'jaligida esa sektorida quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish belgilangan

- Suvni tejoychi texnologiyalarni joriy etish;
- Agrotexnologiyalarda chiqindisiz ishlab chiqarish;



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



-Ekologik toza mahsulot eksportini kengaytirish.

Transport sohasida ham quyidagi chora tadbirlarni amalga oshirish belgilangan :

-Elektrobus va elektromobillar sonini oshirish;

-Shaharlararo “yashil transport” infratuzilmasini yaratish.

Islohotlarning samaradorligi, ulardagi imkoniyat va muammolar haqida gap borar ekan, ularning imkoniyatlari haqida to'xtalmaslikning ilojisi yo'q.

Ular quyidagi imkoniyatlarga ega :

-Iqtisodiyotda energiya sarfini qisqartirish;

-Ekologik barqarorlikni ta'minlash;

-Xalqaro moliyaviy tashkilotlardan investitsiya jalb etish.

Tanganing ikkinchi tarafi, muammolar haqida gapiradigan bo'lsak, ular quyidagilardan iborat :

-Moliyaviy resurslarning yetishmasligi;

-Texnologik modernizatsiyaning sekinligi;

-Aholining ekologik madaniyat darajasi pastligi.

Bu borada Sug'urta kompaniyalari va moliya institutlarining o'rni haqida alohida ta'kidlab o'tsam, Sug'urta kompaniyalari yashil iqtisodiyotda risklarni kamaytiruvchi vosita sifatida muhim ahamiyatga ega. Masalan:

-Qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini sug'urtalash;

-Iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga keladigan xavflarni qoplash;

-Yashil obligatsiyalar va moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish.

Yashil iqtisodiyotning barqaror rivojlanishga ta'siri quyidagicha :

Ijtimoiy: yangi ish o'rinlari, sog'lom muhit;

Ekologik: chiqindilarni kamaytirish, resurslarni tejash;

Iqtisodiy: energiya tejamkorligi, eksport salohiyatining oshishi.

Xorijiy tajriba va O'zbekiston amaliyoti haqida qisqacha ma'lumot bermoqchiman.

Xitoy bugungi kunda dunyoda qayta tiklanuvchi energiya sohasida yetakchi davlat hisoblanadi. 2022-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatda o'rnatilgan quyosh panellari quvvati 390 GVt, shamol turbinalari quvvati esa 365 GVtni tashkil etdi (Xitoy Energetika Boshqarmasi ma'lumotlari). Bu ko'rsatkich global bozorning mos ravishda 35% va 30% ini qamrab oladi.

Xitoy hukumati 2005-yildan boshlab “Yashil kreditlar siyosati”ni joriy etib, banklarni ekologik loyihalarni moliyalashtirishga rag'batlantirdi. Natijada 2020-yilda yashil obligatsiyalar bozori hajmi 125 mlrd AQSh dollariga yetdi. Bundan tashqari, “Yashil transport” dasturi asosida 5 milliondan ortiq elektromobil ishlab chiqarildi.

O'zbekiston uchun ushbu tajribadan quyidagi xulosalarni olish mumkin:

1- Yirik investitsiyalarni jalb etishda davlat kafolatlari muhim ahamiyatga ega;

2- Yashil moliya bozorini rivojlantirish orqali xususiy sektor faolligini oshirish mumkin;



3- Transport sohasida elektromobillarni keng joriy qilish energetik mustaqillikka hissa qo'shadi.

Yevropa Ittifoqi tajribasi

Yevropa Ittifoqi 2019-yilda "Yashil kelishuv" (European Green Deal) dasturini qabul qildi. Ushbu dasturga ko'ra, YI 2050-yilgacha karbonat neytralligiga erishishni maqsad qilgan. 2030-yilgacha esa issiqxona gazlari chiqindilarini 55% ga kamaytirish rejalashtirilgan.

2021-yilda Yevropa Ittifoqida qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi umumiy energiya iste'molida 22% ni tashkil etdi (Eurostat ma'lumotlari). Masalan, Daniya elektr energiyasining 50% dan ortig'ini shamoldan oladi, Germaniyada esa quyosh panellari 59 GVt quvvat ishlab chiqarmoqda.

O'zbekiston uchun Yevropa Ittifoqi tajribasi quyidagilardan iborat:

- 1- "Yashil kelishuv" kabi uzoq muddatli milliy dastur ishlab chiqish;
- 2- Issiqxona gazlarini kamaytirishda qat'iy kvotalar belgilash;
- 3- Energiya samarador uy-joylarni qurishda davlat subsidiyalarini kengaytirish.

Janubiy Koreya tajribasi

Janubiy Koreya 2020-yilda "Yashil yangi kelishuv" (Green New Deal) dasturini qabul qildi. Dasturga ko'ra, 2025-yilgacha 60 mlrd AQSh dollari ekotizimni modernizatsiya qilishga yo'naltiriladi. Natijada 660 ming yangi "yashil ish o'rni" yaratilishi rejalashtirilgan.

2022-yilda Koreyada qayta tiklanuvchi energiya ulushi 15% ga yetdi. Shuningdek, mamlakat energiya samarador texnologiyalar eksportida Osiyoda birinchi o'rinda turib, global bozorning 7% ini egallaydi.

Ushbu tajriba O'zbekiston uchun quyidagi saboqlarni beradi:

- Yashil texnologiyalar eksportini rivojlantirish;
- "Yashil ish o'rinlari" dasturini amalga oshirish;
- Innovatsion korxonalarini qo'llab-quvvatlash orqali xalqaro bozorga chiqish.

AQSh tajribasi

AQSh yashil iqtisodiyotga o'tishda xususiy sektorning faolligi bilan ajralib turadi. Masalan, 2021-yilda Tesla kompaniyasi 936 ming elektromobil ishlab chiqardi va bu orqali global transportni dekarbonizatsiya qilish jarayoniga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, AQShda "Inflation Reduction Act" (2022) qabul qilinib, qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqaruvchilar uchun 369 mlrd dollar subsidiya ajratildi.

O'zbekiston uchun AQSh tajribasi shuni ko'rsatadiki, xususiy sektorni rag'batlantirishsiz yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanmaydi. Shu bois, soliq imtiyozlari, grantlar va subsidiyalar muhim mexanizm hisoblanadi.

Kenya tajribasi

Kenya Afrikaning yashil iqtisodiyotda eng ilg'or davlatlaridan biridir. 2020-yilda mamlakat elektr energiyasining 90% i qayta tiklanuvchi manbalardan, asosan geotermal



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



energiyadan olingan. Mamlakatda 5 mingdan ortiq “yashil startap”lar faoliyat yuritmoqda, ular asosan energiya samarador texnologiyalar ishlab chiqmoqda.

Keniya tajribasi O‘zbekiston uchun suv resurslarini boshqarishda foydali bo‘lishi mumkin, chunki geotermal va quyosh energiyasi imkoniyatlari katta.

O‘zbekiston amaliyoti

O‘zbekistonda 2023-yilda ilk yirik quyosh elektr stansiyalari (Qashqadaryo va Samarqand viloyatlarida) ishga tushirildi. Ulardan har biri yiliga 1,2 mlrd kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. 2025-yilgacha jami 8 GVt quvvatga ega qayta tiklanuvchi energiya obyektlari qurilishi rejalashtirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma’lumotlari).

Shuningdek:

Transport sohasida 2030-yilgacha 15 ming elektromobil joriy etish rejalashtirilgan;

Qishloq xo‘jaligida 2022-yilda 450 ming gektar maydonda suvni tejavchi texnologiyalar joriy qilindi;

Sug‘urta kompaniyalari ekologik risklarni sug‘urtalash bo‘yicha yangi mahsulotlar ishlab chiqmoqda.

Solishtirma tahlil

Xitoy – investitsiyalar hajmi va ishlab chiqarish quvvati bilan yetakchi;

Yevropa Ittifoqi – uzoq muddatli strategiya va qat’iy huquqiy tartibot bilan ajralib turadi;

Janubiy Koreya – innovatsion texnologiyalar va “yashil ish o‘rinlari”ni yaratishga urg‘u beradi;

AQSh – xususiy sektor faolligi va yirik subsidiya paketlari bilan samarali;

Keniya – tabiiy resurslardan samarali foydalanish va startaplar rivoji bilan e’tiborli;

O‘zbekiston – endi boshlanayotgan, ammo katta imkoniyatlarga ega jarayon.

O‘zbekiston ushbu tajribalarni milliy sharoitlarga moslashtirish orqali o‘z strategiyasini rivojlantirmoqda.

Ilmiy tahlil va istiqbollar

2030 yilgacha bo‘lgan davrda yashil iqtisodiyot O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining muhim drayveriga aylanadi. Shu bilan birga, quyidagi istiqbollar belgilandi. Unga ko‘ra quyidagilar rejalashtirildi :

-2030-yilgacha qayta tiklanuvchi energiya ulushi 30% ga yetkaziladi;

-Yashil texnologiyalar eksporti shakllanadi;

-Mintaqaviy ekologik hamkorlik kuchayadi.

Yuqorida qayd etilgan ma’lumotlardan xulosa qilib quyidagi takliflarni berishim mumkin :

1. Yashil iqtisodiyot sohasida xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish va milliy sharoitga moslashtirish zarur.

2. Sug‘urta kompaniyalari va moliya institutlarining faol ishtirokini rag‘batlantirish lozim.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



3. Ekologik ta'lim va targ'ibot ishlarini kuchaytirish orqali aholining ekologik madaniyatini oshirish kerak.
4. Davlat-xususiy sheriklik asosida yashil loyihalarni moliyalashtirish tizimini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-avgustdagi PQ-266-son qarori.
3. "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi – 2030". Toshkent, 2019.
4. BMT. "Sustainable Development Goals – 2030". New York, 2015.
5. World Bank. Green Growth Report. Washington, 2020.
6. OECD. Green Economy Transition. Paris, 2018.
7. UNEP. Towards a Green Economy. Geneva, 2011.
8. Asian Development Bank. Green Growth Opportunities. Manila, 2021.
9. Xitoy Xalq Respublikasining Yashil iqtisodiyot dasturi. Beijing, 2020.
10. European Union. Green Deal. Brussels, 2019.
11. Korea Green New Deal Policy. Seoul, 2021.
12. Jahon Energetika Kengashi. Global Energy Report. London, 2022.
13. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hisobotlari, 2022.
14. O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi ma'lumotlari, 2023.
15. FAO. Sustainable Agriculture Guidelines. Rome, 2020.
16. IPCC. Climate Change Report. Geneva, 2021.
17. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi hisobotlari, 2022.
18. IMF. Green Finance and Investment. Washington, 2021.
19. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi materiallari. Toshkent, 2023.
20. UNDP. Green Economy in Central Asia. New York, 2022.

